TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB'YEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH (MILLIY BANK MISOLIDA)

Abdurazaqov Turonbek Ulug'bek o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi tinglovchisi
E-mail: boxerfrenk@gmail.com
Tel: +998331555544

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlashdagi chora tadbirlar, bu jarayondagi muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlat dasturlari, imtiyozli kreditlash mexanizmlari, hamkorlik yo'nalishlari tahlil qilindi. Kreditlash hajmlari, samaradorligi va shartlari tahlil asosida, kichik biznesni barqaror moliyalashtirish uchun monitoring tizimlarini takomillashtirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish zarurligi asoslab berildi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, xizmatlar, moliya, tijorat banklari, kredit, iqtisodiy faollik.

Annotation. This article analyzes the measures taken by commercial banks to support small businesses and private entrepreneurship, as well as the challenges encountered in this process. The study examines state programs, preferential lending mechanisms, and areas of cooperation. Based on the analysis of credit volumes, effectiveness, and conditions, the paper substantiates the need to improve monitoring systems and enhance financial literacy to ensure the sustainable financing of small businesses.

Keywords: small business, private entrepreneurship, services, finance, commercial banks, credit, economic activity.

Аннотация. В данной статье проанализированы меры, принимаемые коммерческими банками по поддержке субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства, а также проблемы, возникающие в этом процессе. В исследовании рассматриваются государственные программы, механизмы льготного кредитования и направления сотрудничества. На основе анализа объёмов, условий и эффективности кредитования обоснована необходимость совершенствования системы мониторинга и повышения финансовой грамотности для обеспечения устойчивого финансирования малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, услуги, финансы, коммерческие банки, кредит, экономическая активность.

Kirish

Bugungi iqtisodiy raqobat muhitida har bir mamlakatning barqaror rivojlanishi eng avvalo shu mamlakatning iqtisodiyotiga bog'liq. Ayniqsa, kichik

ISSN 3030-3907

biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati orqali mamlakat fuqorolarining iqtisodiy faoliyatda bevosita ishtiroki, ularni moliyaviy mustaqilligi va ijtimoiy farovonligini ta'minlash muhim omil sifatida qaralmoqda. Bu borada tijorat banklarining roli beqiyos hisoblanadi chunki tijorat banklari orqali tadbirkorlik subyektlariga ko'maklashish, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va investitsion qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish ortib bormoqda.

So'nggi yillarda kichik va o'rta biznesni rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda biznes muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiy o'sishga turtki beruvchi yangi biznes tashabbuslarni amalga oshirishga ko'maklashish, raqobatbardosh mahsulotlar bilan yangi tashqi bozor segmentlariga chiqishni qo'llab-quvvatlash maqsadida ijro etilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2025-yil 19-mart sanasidagi 50- farmonida o'rta va kichik biznesni rivojlantirish yo'lida quyidagi ko'rsatkichlar belgilab qo'yilgan:

2025-yilda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib quyidagilar belgilansin:

(a) kichik va o'rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga, sanoatda — 34 foizga, eksportda — 34 foizga va aholi bandligini ta'minlashda 75 — foizga yetkazish;

(b) kamida 600 nafar kichik va o'rta biznes subyektlarining yiriklashishiga ko'maklashish orqali ularni "chempion" tadbirkorlarga aylantirish;

(v) ichimlik va oqova suv, yo'l, qurilish, kommunal xo'jalik, utilizatsiya, migratsiya, madaniyat va ijtimoiy xizmatlarda kichik biznes ulushini kamida 2 baravarga oshirish;

(g) 100 nafardan ko'p ishchisi bor tadbirkorlik subyektlari sonini 4 mingga yetkazish;

(d) Sanoatni jadal rivojlantirish bo'yicha loyiha ofislarini tashkil etish hisobiga kamida 100 ta kichik va o'rta biznes subyektlarida brend mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

(e) kichik biznes subyektlari ishtirokida kamida 200 ta startap loyihalarni amalga oshirish;

(j) uzoq muddatli ijaraga berilgan 30 ming gektar ekin yer maydonida yuqori daromadli ekinlarni yetishtirish, 16 ta ixtisoslashgan agrokompaniya faoliyatini yo'lga qo'yish hamda 9 ta zamonaviy agrosanoat xo'jaligini tashkil qilish.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Milliy banki AJ tajribasi misolida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab quvvatlashda tijorat banklarining o'rni, mavjud muammolari va muammolarni bartaraf etish choralari ko'rib chiqiladi va moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish yo'llari tahlil qilinadi.

ISSN 3030-3907

Adabiyotlar sharxi

Tadbirkorlikni yanada qo‘llab quvvatlash uchun kreditlarni qulay foizlarda ajratilishi, investitsiyalarni sohalar uchun kengaytirish, soliq borasida imtiyozlarni oshirish, hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida yengilliklar berish muhim obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Shu jumladan, qisqa vaqt davomida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlar, aholi daromadlarining o‘sishi, aholining ish bilan bandligini ta’minlash, tadbirkorlik faoliyati samaradorligi orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish, ish bilan bandlikning turli shakllarini rivojlantirishga erishilmoqda. [1]

Kichik biznes sub’ektlari so‘nggi yillarda ichki iste’mol bozorini import o‘rnini bosuvchi tovarlar bilan to‘ldiribgina qolmay, balki yuqori sifatli, raqobatbardosh tovarlarni jahon bozoriga taklif etmoqda. Kichik biznes mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarida ham eng muhim sohaga aylanib bormoqda. Qishloq xo‘jaligi, savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish, ovqatlanish, mehmonxona va turizm faoliyatlarida kichik biznesning salmog‘i juda kattadir. Keyingi paytlarda sanoatda tarmoqlarida modernizatsiya, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan o‘zgartirish, sanoatda chuqur tarkibiy o‘zgartirishlar va diversifikatsiyani amalga oshirilishi natijasida qishloq joylarda ham sanoat tarmoqlari rivojlanib bormoqda. Bunda esa kichik biznes asosiy yetkachilardan hisoblanadi. [2]

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini bank kreditlariva soliq mexanizmlari yordamida rivojlantirish kompleks, tizimli va innovatsion yondashuvni talab etadi. Kredit va soliq sohasidagi islohotlar, moliyaviy xizmatlarning mavjudligini kengaytirish, tadbirkorlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining tayanch ustuniga aylanishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasining barqaror iqtisodiy o‘sishi va ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qiladi.[3]

Har bir tijorat banklari o‘z kredit siyosati asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlashning imtiyozli davrini belgilaydilar. Shuningdek kreditlar qonun hujjatlarida taqiqlangan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun va ilgari olingan kreditlarni yoki tijorat bankining «Kredit siyosati»da belgilangan boshqa qarzlarni qaytarish uchun berilishi mumkin emas. [4]

Metodologiya

Ushbu maqolada tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarini qo‘llab quvvatlashni takomillashtirishni Milliy bank misolida Tizimli tahlil usulidan foydalanib, tijorat banklari faoliyatining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarini moliyaviy qo‘llab quvvatlashdagi

ISSN 3030-3907

o‘rnini to‘liq o‘rganild. Bu orqali tijorat bank xizmatlari tizimi, kreditlash mexanizmi va ularning tahlilini ko‘rib chiqildi.

Statistik tahlil usulidan foydalanib, Milliy bank rasmiy manbaalari dan olingan statistik ma’lumotlar asosida kredit portfeli, foiz stavkalari, tadbirkorlik sub’yektlariga ajratilgan mablag‘lar tahlil qilindi.

Empirik tahlil usulida realda mavjud holatni chuqur o‘rganish maqsadida Milliy bank AJ faoliyatida bo‘lib o‘tgan amaliy misollar o‘rganildi. Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini va ilmiy ahamiyatini ta’minlaydi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasi Milliy banki AJ tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarini moliyaviy qo‘llab quvvatlash bo‘yicha olib borilayotgan amaliy ishlar tahlil qilindi.Quyida ulardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz:

1. Kreditlash hajmi: 2024-yil yakuni bo‘yicha mamlakatdagi barcha banklar tomonidan ajratilgan jami kreditlar miqdori taxminan 275 trillion so‘mni tashkil etgan. 2025-yilda bu ko‘rsatkich 300 trillion so‘mdan oshishi kutilmoqda.

Yuqoridagi raqamlar Milliy bank hamda boshqa davlat banklarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirishga bo‘lgan e’tibori va strategik yondashuvini yaqqol ko‘rsatadi. Kredit hajmining sezilarli darajada oshirilishi iqtisodiy faollik va bank sektorining qo‘llab-quvvatlash siyosatining samaradorligi haqida dalolat beradi.

2. Imtiyozli kredit mahsulotlari (PQ-312 doirasida) Prezidentning 2024-yil 7-sentyabrdagi PQ-312–sonli qarori asosida "Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash" dasturiga ko‘ra:

Maksimal kredit miqdori: 300 mln so‘m (shundan 100 mln so‘m “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ kafolati, 200 mln so‘m esa bank tomonidan);

Muddat: 84 oygacha (ko‘pi bilan 2031-yil 1-oktyabrgacha);

Imtiyozli davr: 36 oygacha (2037-yil 1-oktyabrgacha);

Foiz stavkalari: 5-toifa hududlarda – 19 %, 1-toifa hududlarda – 23 %, boshqa toifalarga mos ravishda — 20–22 % oralig‘ida.

Dastur orqali kichik tadbirkorlik sub’yektlariga imtiyozli shartlarda uzoq muddatli moliyaviy resurslar taqdim etilmoqda. Bu esa hududiy rivojlanish, iqtisodiy diversifikatsiya va barqaror sohalarni qo‘llab-quvvatlashda katta imkoniyatlar ochadi.

3. Xalqaro moliyalashtirish resurslari

ISSN 3030-3907

2024-yil iyun oyida Milliy bank Standard Chartered Bank va LBBW orqali, MIGA sug‘urta qoplamasi ostida 100 million yevro miqdorida sindikat kredit liniyasini jalb qildi. Ushbu mablag‘:

Kapital xarajatlar / aylanma mablag‘lar,

Qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, muqobil energiya kabi tarmoqlar,

Eksportga yo‘naltirilgan loyihalar,

Yangi ish o‘rinlarini yaratishga yo‘naltirilgan.

Bu xalqaro kredit liniyasi Milliy bank va umumiy bank tizimiga eksport, texnologik modernizatsiya va barqarorlik yo‘nalishida katta imkoniyatlar ochadi. MIGA kafolati eksport yo‘nalishidagi risklarni kamaytiradi va kredit shartlarini qulaylashtiradi.

4. Qo‘shimcha xalqaro hamkorlik (Islom Taraqqiyot Banki)

2025-yil yanvar oyida ITB guruhi O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish hamda kafolatlash uchun $40 million ajratishini e’lon qildi:

$30 million murobaha tamoyili asosida kredit sifatida;

Qolgan $10 million esa Islom birdamligi taraqqiyot jamg‘armasidan (ISDF) kafolat sifatida yo‘naltiriladi.

Bu moliyalashuv O‘zbekistonning islom moliyasi institutlari bilan hamkorligini mustahkamlab, kichik biznes sub’yektlariga yana bir moliyaviy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish strategik ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Milliy bank bu jarayonda yetakchi tijorat banklaridan biri sifatida faol ishtirok etib, ko‘plab kreditlash dasturlari, davlat qarorlari va xalqaro hamkorlik asosida tadbirkorlik sub’yektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlab kelmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagilar asosiy jihatlar sifatida aniqlangan: Milliy bank tomonidan kichik biznes sub’yektlariga ajratilayotgan kreditlarning hajmi yildan-yilga ortib bormoqda; 2024–2025-yillarda kichik biznesga ajratilayotgan kreditlar ulushi 40% ga yetkazildi.

“Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash”, “Kelajakka qadam”, “Yoshlar — kelajagimiz” kabi dasturlar orqali imtiyozli va moslashtirilgan kredit mahsulotlari ishlab chiqilgan.

MIGA, ITB, Standard Chartered Bank kabi xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda sindikat kredit liniyalari jalb qilinmoqda, bu esa kichik biznes uchun barqaror va uzoq muddatli resurslar bazasini shakllantiradi.

ISSN 3030-3907

Shu bilan birga, tizimda qator kamchiliklar mavjud: sun’iy ochilgan sub’yektlar, texnik infratuzilma muammolari, kredit monitoringining zaifligi hamda moliyaviy savodxonlikning pastligi.

Takliflar

Bank tizimida kichik biznesni samarali moliyalashtirishni ta’minlash hamda mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:
Monitoring va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish: Kredit ajratilgan sub’yektlar faoliyatini tizimli tarzda nazorat qilish, ularning haqiqiy iqtisodiy faolligini aniqlovchi “post-kredit monitoring” tizimini joriy etish lozim. Bu usul sun’iy tashkil etilgan yoki faoliyatsiz sub’yektlarga resurs yo‘naltirilishining oldini oladi.

Digital infratuzilmani rivojlantirish: Kredit olish, hujjat topshirish va hisobot berish jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish, “onlayn ariza + onlayn monitoring” mexanizmini ishlab chiqish zarur. Bu nafaqat jarayonni tezlashtiradi, balki korrupsiya xavfini kamaytiradi.

Texnika va vositalar bilan ta’minlashni kuchaytirish: Tadbirkorlar, ayniqsa chekka hududlardagi sub’yektlar uchun zamonaviy texnika, kompyuter, dasturiy ta’minot va internet xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish lozim. Bunda davlat–xususiy sheriklik asosida IT nuqtalar tashkil qilish mumkin.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish: Kredit oluvchilar uchun maxsus o‘quv kurslari, konsalting markazlari va onlayn platformalarni yaratish orqali kredit shartlari, biznes-reja tuzish, resurslardan maqsadli foydalanish bo‘yicha bilimlarni oshirish muhim.

Hududiy farqni inobatga olgan kredit siyosati: Kredit stavkalarini va shartlarini hududlar iqtisodiy holatiga moslashtirish, infratuzilmasi sust rivojlangan hududlar uchun yanada qulayroq shartlar (past stavka, ko‘proq imtiyoz) joriy etilishi lozim.

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish: Kichik biznesga xorijiy kredit liniyalarini jalb etishda xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikni kengaytirish, ekologik va innovatsion loyihalarga mo‘ljallangan moliyalashtirish liniyalarini joriy etish zarur. Yuqoridagi xulosa va takliflar, kichik biznes sub’yektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish orqali ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish, bank sektorining barqarorligini mustahkamlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sharof o‘g‘li, R. S., & Maxkamova, S. Z. (2024, June). MAMLAKATIMIZDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI

ISSN 3030-3907

BOSHQARISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. In International Conference on Adaptive Learning Technologies (Vol. 5, pp. 161-165).
2. Mamadaliyev, D. (2024). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSIYALARNI QO ‘LLASH USULLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 104-106.
3. Masharipov, F. (2025). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI VA SOLIQ MEXANIZMLARI YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI. Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 4(6), 7-9.
4. Oybek o‘g‘li, A. J. (2025). BANKLAR TOMONIDAN KICHIK BIZNES SUBEKTLARINI KREDITLASH TARTIBI VA UNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR, 1(8), 560-565.

ISSN 3030-3907